



UDK:37.03

Mastura RASULOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti
E-mail: mastura_rasulova1995@gmail.com

Qarshi DU dotsenti, psixologiya fanlari doktori Z.Fayziyev taqrizi asosida

DEFINITION AND OVERCOMING OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS: SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS

Annotation

The article analyzes the socio-psychological factors influencing the manifestation of aggressive behavior during adolescence. It examines the role of family environment, school relationships, and peer influence in the development of aggression in teenagers. The article also provides important information on methods for identifying aggressive behavior in adolescents and psychocorrectional approaches aimed at mitigating it.

Key words: Adolescence, aggression, social environment, psychodiagnostics, psychocorrection, family, school.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ПРЕОДОЛЕНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

Аннотация

В статье проанализированы социально-психологические факторы проявления агрессивного поведения в подростковом возрасте. Рассмотрена роль семейной среды, взаимоотношений в школе и влияния сверстников на формирование агрессии у подростков. Также в статье представлены важные сведения о методах выявления агрессивного поведения у подростков и психокоррекционных подходах, направленных на его устранение.

Ключевые слова: Подростковый возраст, агрессия, социальная среда, психодиагностика, психокоррекция, семья, школа.

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada o'smirlik davrida namoyon bo'ladigan agressiv xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Unda oila muhiti, maktabdagi munosabatlar va tengdoshlar ta'sirining o'smir xulq-atvorida agressiya shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada o'smirlarda agressiv xulq-atvorni aniqlash usullari va uni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, agressiya, ijtimoiy muhit, psixodiagnostika, psixokorreksiya, oila, maktab.

Kirish. O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yildi. O'tgan davr mobaynida yoshlarning ma'naviy, intellektual va jismoniy kamolotini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, ta'lim tizimi modernizatsiya qilindi, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlandi. Qolaversa, yoshlik davrining muhim bir bo'lagi bo'lgan o'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqichlardan biri bo'lib, bu paytda fiziologik yetilish, emotsional beqarorlik va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar jadal kechadi. Agar ushbu jarayonda o'smir yetarli e'tibor, tushunish va psixologik ko'makka ega bo'lmasa, ayrim hollarda ular shaxsida agressiv xulq-atvor yoki deviant xatti-harakatlar shakllanishi mumkin. Shu bois mustaqillik yillarida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish davlat siyosatining muhim vazifasiga aylandi.

Bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida o'smirlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi takomillashtirilib, malakali mutaxassislar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil

etish, ularni sport seksiyalari, ijodiy to'garaklar va madaniy tadbirlarga keng jalb etish orqali salbiy xulq-atvor ko'rinishlarining oldini olishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish orqali o'smir shaxsining barqaror rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. Chunki barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ma'naviy yetuk yoshlar – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligining asosiy tayanchidir. Shu sababli o'smirlar o'rtasida agressiv ijtimoiy-psixologik omillarini chuqur o'rganish, ilmiy asoslangan profilaktik va korreksion chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunning muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'smirlarda xulq-atvor shakllanishi muammosi psixologiya fanining eng dolzarb va ko'p qirrali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxs kamolotida o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining shakllanishi murakkab psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda biologik yetilish, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi hamda tengdoshlar ta'siri o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy psixologiyada shaxs xulq-atvorining o'ziga xos rivojlanishi muammosi yuzasidan E.Erikson, E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou, J.Piaje, Dj.Kelli, A.Adler, E.Fromm, G.Olport, K.Yung, R.Zazzo, V Shtern va boshqalar tomonidan olib

borilgan ilmiy tadqiqot ishlari mashhur bo'lsa, sobiq ittifoq psixologiyasida esa ushbu muammoning yechimlari P.P.Blonskiy, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, L.I.Bojovich, V.A.Krutetskiy, A.A.Lyublinskaya, A.V.Petrovskiy singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topgan.

O'smirlarda xulq-atvor shakllanishi muammosi xorij psixologlari bilan bir qatorda mamlakatimiz psixolog olimlari M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, R.S.Samarov, G.K.To'laganova, I.O.Haydarov B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyevlar tadqiqot ishlarida keng qamrovli o'rganilgan hamda xulq-atvor muammosini o'rganish bo'yicha o'ziga xos yo'nalish yaratilishiga muvaffaq bo'lingan. Mazkur olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'smir shaxsining rivojlanishida ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, ta'lim-tarbiya jarayoni hamda shaxsiy-psixologik xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda o'smir shaxsining rivojlanish jarayoni tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, xulq-atvor shakllanishida ichki (individual-psixologik xususiyatlar: temperament, xarakter, ehtiyoj va qiziqishlar) hamda tashqi (oilaviy muhiti, maktab jamoasi, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari) omillarning o'zaro ta'siri ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. G'.B.Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog'lom psixologik muhitning bola xulq-atvoriga ta'siri, xulq og'ishining kelib chiqishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ruhiy tanglik va affektiv holatlarning bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'siri masalasi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari oiladagi nosog'lom-psixologik muhit nafaqat er-xotin o'rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Oilada ota-onalarning o'z hayot va tashvishlari bilan bo'lib, bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirmasliklari, bolalarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik roli, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko'rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvorga ega

bo'lishlari va boshqalar bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga olib kelishini ilmiy asoslab bergan [7].

F.F.Rasulova ilmiy izlanishlarida o'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rganib, o'smirlilik yoshi psixologiyasi va ushbu yosh davrlarida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi psixologik xususiyatlarini ilmiy asoslab bergan hamda uning oldini oluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [5]. Muallifning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda agressiv xulq-atvor ko'pincha ichki psixologik ziddiyatlar, hissiy o'zgarishlar va ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lib, ularni aniqlash va boshqarish uchun tizimli yondashuv zarur. U o'smirlarning ruhiy va hissiy rivojlanish xususiyatlarini, stress va frustrationga bo'lgan sezuvchanligini tahlil qilib, agressiv xatti-harakatlar paydo bo'lishining asosiy sabablarini aniqlagan. Shuningdek, u o'smirlarda agressiv xulq-atvorni kamaytirish va ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish uchun oila, maktab va ijtimoiy muhitda muvofiq profilaktika choralarini amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy-tadqiqot ishimiz o'smirlarda agressiv xulq-atvorni aniqlash va bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda o'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari hamda uning shaxs rivojiga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida o'smir shaxsining individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, ta'lim muassasidagi ijtimoiy munosabatlar, tengdoshlar ta'siri va axborot makoni kabi omillarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Shuningdek, ish doirasida agressiv xulq-atvorni barvaqt diagnostika qilish usullari aniqlanib, uning profilaktikasi va psixokorreksiyasiga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida o'smirlarda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, o'zini o'zi nazorat qilish va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik dasturlar taklif etildi. Mazkur ilmiy izlanish o'smirlar o'rtasida agressiya muammosini kamaytirish, ularning sog'lom va barqaror shaxs sifatida shakllanishiga amaliy hissa qo'shishni maqsad qilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. 1-jadval

O'smir shaxsida agressiv xulq-atvor shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar

№	Ta'sir qiluvchi omil	Foizda ta'siri	Ko'rinishi	Natija va izoh
1	Oila muhiti	30 %	Bolaning oiladagi munosabatlari, qattiq tartib yoki e'tiborsizlik	Ota-ona tomonidan qattiq tartib yoki e'tiborsizlik holati bolada ruhiy taranglik va agressiyani oshiradi; barqaror va mehrlil oila muhiti agressiyani kamaytiradi
2	Ma'naviy va ijtimoiy muhit	20 %	Do'stlar, maktab, ijtimoiy muhitdagi ta'sir	Yomon do'stlar doirasi va salbiy ijtimoiy muhit agressiv harakatlarga olib kelishi mumkin; ijobiy muhit bolani ijobiy xulq-atvorga tarbiyalaydi
3	Media va video o'yinlar	15 %	Jinoyat va zo'ravonlikni ko'rsatuvchi filmlar, o'yinlar	Zo'ravonlik mavzulariga ko'p tajribali bolalar agressiya ko'rsatishi mumkin; medianing nazoratli va tarbiyaviy shakllari samarali
4	Psixologik holat va stress	20 %	Qiyinchiliklar, stress, ruhiy bosim	Bolaning stressli holati agressiv reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin; stressni kamaytirish va psixologik yordam samarali
5	Biologik va genetik omillar	15 %	Irsiylik, neyroximik o'zgarishlar	Qisqa xolatdagi emotsional nazoratning kamligi va genetik omillar agressiyaga ta'sir qiladi; erta diagnostika va nazorat zarur

Oila muhiti (30 %). Oiladagi munosabatlar, ota-onaning qattiq tartib yoki e'tiborsizlik holatlari bolada ruhiy taranglik va agressiyani oshiradi. Shu bilan birga, barqaror va mehrlil oila muhiti agressiyani kamaytiradi va o'smirni ijobiy xulq-atvorga tarbiyalaydi. Oiladagi munosabatlar bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Agar ota-onaning munosabati qattiq tartib, qattiq va talabchan bo'lsa yoki, aksincha, e'tiborsizlik va beg'amlik kuzatilsa, bu holat bolada stress, taranglik va ruhiy xavotirni kuchaytiradi. Bunday muhitda o'sib kelayotgan bola o'zini himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirishi mumkin, bu esa ba'zan agressiv xulq-atvor sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ota-onaning

doimiy tanqidlari va intizomga qat'iy e'tibori bolada ichki qo'rquv va notinchlik hissini uyg'otishi mumkin. Shuningdek, ota-onaning e'tiborsizligi yoki ruhiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi bolani ijtimoiy aloqalarda ortiqcha tajovuzkor yoki oraliqsiz xulq-atvorga egalashiga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, barqaror, muhabbatga to'la va qo'llab-quvvatlovchi oila muhiti bola uchun psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi. Bola bunday muhitda o'zini erkin va himoyalangan his etadi, uning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi va ijobiy xulq-atvor rivojlanadi. Mehr va muhabbat bilan tarbiyalangan o'smir atrofdagilar bilan ham hamkorlikda va mehribon munosabatlarda bo'lishga moyil

bo'ladi, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganadi. Shuningdek, oilada ota-onaning o'zini boshqarish qobiliyati va samimiy muloqot uslublari bolaga model bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ota-ona o'rtasidagi konstruktiv bahslar, empatiya ko'rsatish va ijobiy maqtash bolaga ijtimoiy munosabatlarda samarali harakat qilishni o'rgatadi. Bu esa bolaning agressiyani nazorat qilish va muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa, oila muhiti bolaning ruhiy barqarorligi va ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalarning mehr va e'tibori bola uchun nafaqat himoya, balki ijtimoiy va emotsional o'sishning poydevori hisoblanadi.

Ma'naviy va ijtimoiy muhit (20 %). Bolaning xulq-atvori nafaqat oila, balki ijtimoiy muhit bilan ham yaqin bog'liq. Do'stlar, maktab va keng jamoat muhiti bolaning fikrlash tarzi, munosabatlari va harakatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, bola yaxshi do'stlar doirasida bo'lsa, u hamkorlik, hurmat va meyorlarga rioya qilishni o'rganadi, o'zini ijobiy tarzda ifoda etishga moyil bo'ladi. Aksincha, yomon do'stlar doirasi va salbiy ijtimoiy muhit bolaning agressiv harakatlarini kuchaytirishi mumkin. Agar do'stlar gap-so'zda, harkatlarda yoki turli salbiy odatlarda (masalan, ta'qiqlangan narsalarni sinash, nizo chiqarish) misol ko'rsatsa, bola bu xulq-atvorni o'zlashtirish ehtimoli yuqori. Bunday muhitda bolada nafaqat agressiya, balki bog'liqlik, qo'rquv va notinchlik hislari ham paydo bo'lishi mumkin.

Shuningdek, maktab va keng jamoat muhiti ham katta ahamiyatga ega. Muallimlar va sinfdoshlar bilan konstruktiv va hurmatli munosabat bolaga ijobiy model sifatida xizmat qiladi. Masalan, muallimlarning talab va intizomni samarali, adolatli va mehr bilan qo'llashi bolada mas'uliyat va o'zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ijobiy ijtimoiy muhit bolani ijobiy xulq-atvorga tarbiyalaydi. Bola shu muhitda o'zini qimmatli va qo'llab-quvvatlangan his qiladi, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganadi va atrofida g'ildirga nisbatan ham mehribon va hamkorlikka moyil bo'ladi. Shu tariqa, do'stlar va ijtimoiy muhit bolaning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida muhim faktor hisoblanadi.

Media va video o'yinlar (15 %). Bolaning agressiyasi va xulq-atvoriga medianing ham salbiy va ijobiy ta'siri katta ahamiyatga ega. Jinoyat va zo'rvonlik mavzusini ko'rsatuvchi filmlar, multfilmlar va video o'yinlar bolada ruhiy hayajon va agressiv reaksiyalar paydo qilish ehtimoliga ega. Masalan, bola bir necha marta qurbonlik va hujum mavzuli o'yinlarda qatnashsa, u haqiqiy hayotda ham muammolarni himoya yoki tajovuz yo'li bilan hal qilishga moyil bo'lishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, hamisha zo'rvonlikka va nizoga guruhlar orqali ruhlantirilgan yoshlarda kuchayadi. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan nosog'lom kontent ham bolada notinchlik, tashvish va xulqda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bola har kuni jinoyat va zo'rvonlik mavzularini kuzatsa, u real hayot va o'yinlar orasidagi chegarani anglamasligi mumkin. Bu esa agressiyani nazorat qilish va ijobiy muomala ko'nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, medianing ijobiy tarbiyaviy shaklda qo'llanishi bolaning xulq-atvorini ijobiy yo'nalishga burishi mumkin. Masalan, ilm-fan, sport, san'at va ijtimoiy hamkorlik mavzuli filmlar va o'yinlar bolada hamkorlik, mehr-muhabbat va qiyin vaziyatlarda muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onalar va muallimlar mediani nazorat qilish, bolaga yosh va psixologik jihatdan mos kontentni taqdim etish orqali uning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu tariqa, media va video o'yinlar bolaning agressivlik darajasiga sezilarli ta'sir qiladi va ularni nazorat qilish hamda tarbiyaviy maqsadda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bolaning videokontent bilan

muvozanatli, tarbiyaviy va meyorli munosabatda bo'lishi uning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Psixologik holat va stress (20 %). Bolaning psixologik holati va ruhiy barqarorligi uning xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga katta ta'sir qiladi. Qiyinchiliklar, ruhiy bosim va stress bolada agressiv reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Masalan, maktabdagi muammolar, sinfdoshlar bilan nizo, oiladagi bahslar yoki uzoq muddatli qiyinchiliklar bolada qahrilanish, asabiylik va notinchlikni uyg'otadi. Shuningdek, bolada stress yuqori bo'lsa, u kichik haqorat yoki rad etish holatlarida ham osonlikcha qahrilanishi va agressiv harakatlar qilishga moyil bo'ladi. Bundan tashqari, stressli holatlar bolada tushkunlik, xavotir va o'zini past baholash kabi psixik holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, uzoq muddat davomida ota-onaning qattiq tartibga asoslangan munosabati yoki o'qish yukining balandligi bolada ruhiy cho'kish va notinchlik hissinini uyg'otadi. Bu esa ijobiy munosabatlar va do'stlik aloqalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun stressni kamaytirish va psixologik yordam berish bolaning ruhiy salomatligi va ijtimoiy xulq-atvorini mustahkamlashda samarali hisoblanadi. Misol uchun, ota-onalar va o'qituvchilar bola bilan muloqot qilib, uning his-tuyg'ularini tushunishga, stressni pasaytirish uchun o'zini ifoda qilish imkoniyatlarini yaratishga va qiyinchiliklardan chiqish yo'llarini ko'rsatishga e'tibor berishi mumkin. Shuningdek, sport, san'at, yozma va ijodiy faoliyatlar bolada stressni yumshatish va energiyani ijobiy yo'nalishga burish uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, bolaning psixologik holati va stress darajasi uning agressivlik va ijobiy xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ularni nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash bolaning barqaror ruhiy holatini saqlash va ijtimoiy qo'shilishni osonlashtirishda asosiy ahamiyatga ega.

Biologik va genetik omillar (15 %). Bolaning agressivlik xulq-atvorini shakllantirishda biologik va genetik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Irsiylik, ya'ni genetik meros, ba'zi holatlarda bolada emotsional nazoratning darajasiga va qahrilanishga moyillikka ta'sir qilishi mumkin. Masalan, agar ota-ona yoki yaqin qarindoshlarda emotsional reaksiyalarni nazorat qilishda qiyinchiliklar kuzatilgan bo'lsa, bolada ham shunga o'xshash holatlar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, neyroximik o'zgarishlar, masalan, miyadagi serotonin va dofamin kabi neyrotransmitterlar darajasining buzilishi, bolada asabiylik va qahrilanishni osonlashtiradi. Bu esa notinchlik, sabrsizlik va agressiv reaksiyalar paydo bo'lishini kuchaytiradi. Ba'zi bolalarda, shifokor nazorati ostidagi genetik va bioximik tahlillar orqali, agressivlikka moyillikni oldindan aniqlash va unga ta'sir qilish mumkin.

Erta diagnostika va nazorat orqali biologik va genetik omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Masalan, psixologik yordam, stressni boshqarish, sport va ijodiy faoliyatlar bolada emotsional nazoratni mustahkamlaydi va agressiyani pasaytiradi. Shuningdek, oila va maktab muhitida samarali qo'llab-quvvatlash bolada bu omillarning salbiy ta'sirini yumshatishda muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa, biologik va genetik omillar bolaning agressivlik darajasiga ta'sir qiladi, ammo ularni erta aniqlash va samarali nazorat qilish orqali ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'smirlarda agressiv xulq-atvor turli ijtimoiy va psixologik omillar, xususan oilaviy muhit, do'stlar bilan munosabatlar, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlari, maktabdagi nizolar va ruhiy bosim ta'sirida shakllanadi. Noto'g'ri intizom, ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchilik, salbiy ijtimoiy muhit yoki zo'rvonlikka moyil rafiqalar bolaning agressiv reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin.

Shuningdek, qonli va zo'rvonlikka asoslangan raqamli kontent ham bolaning emotsional dunyosiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois, agressiyani erta aniqlash va bola bilan ochiq muloqot, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, stress va nizolarni boshqarish kabi choralarini qo'llash uning emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Erta intervensiyalar va mos muhit bolaning sog'lom rivojlanishi va kelajakdagi shaxsiy hamda ijtimoiy hayotidagi salbiy holatlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

O'smirlar davrida namoyon bo'ladigan agressiv xulq-atvorni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

O'smirning odatiy xulq-atvoridan farq qiladigan qarhlanish va ruhiy bosim belgilarini kuzatish muhim hisoblanadi. O'smirda odatiy holatdan farq qiladigan, tez jahllanish, qahrlanish, do'stlari bilan kelishmovchiliklar va ruhiy tushkunlik belgilarini diqqat bilan kuzatish kerak. Bu ilk signallar bolada agressiya rivojlanishi ehtimoli borligini ko'rsatishi mumkin. Erta aniqlash bolani qo'llab-quvvatlash va mos choralar ko'rish imkonini beradi.

Do'stlar, ijtimoiy tarmoqlar va o'yinlar ta'sirini nazorat qilish zarur. O'smirning ijtimoiy muhiti – do'stlari, onlayn tarmoqlar va video o'yinlar agressiv xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin. Shunga ko'ra, bola kimlar bilan munosabatda bo'lishi,

qanday kontentni iste'mol qilishi va o'yinlarda qanday tajribalar olganini kuzatish va zarur hollarda cheklovlar qo'yish tavsiya etiladi.

Maktab va oilaviy muhitda ochiq muloqot va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur hisoblanadi. Bola o'z his-tuyg'ularini erkin va xavfsiz ifodalashi uchun oilada ochiq va ishonchli muhit yaratish muhim. Ota-onalar va qarindoshlar bilan muntazam muloqot qilish, bolaning qiyinchiliklari haqida so'rash va uni qo'llab-quvvatlash agressiyani kamaytirishda samaralidir.

Maktabdagi nizolarni tezda hal qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi faoliyatlarga jalb qilish zarur. Maktabdagi har xil nizoli holatlar va kelishmovchiliklarni tezda aniqlab, ularni tinch yo'llar bilan hal qilish zarur. Shu bilan birga bolani jamoaviy faoliyatlarga, sport va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish muammoli vaziyatlarda samarali muomala va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Psixolog yoki maslahatchi bilan maslahatlashish muhim bo'lib, agar bolada agressiv xulq-atvor kuchaysa yoki uni nazorat qilish qiyin bo'lsa, malakali psixolog yoki maslahatchi yordamiga murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Professional yordam bolaga o'z his-tuyg'ularini boshqarish, stress va qahrlanishni kamaytirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абитов И.Р. Психология девиантного поведения: учебно-методический комплекс/ И.Р.Абитов. – К.: РИЦ «Школа», 2010.
2. Воспитание трудного ребёнка: дети с девиантным поведением. под. ред. М.И. Рожкова. – М.: гуманитар. изд. центр «ВЛАДОС», 2003.
3. Девиантное поведение детей и подростков. -2-е издание. – М.: «Гаудеамус», 2007.
4. Камилова Н.Т. Особенности самооценки подростков с девиантным поведением. Авт. реф. канд психол. наук. – Т., 2001.
5. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Psixol. fanl.nomz. ... diss. avtoreferati. – Т., 2018.
6. Umarov B.M. Tarbiyasi og'ir bolalar va ular xulq-atvoridagi og'ishlarning kelib chiqish sabablari. – Т.: Aloqachi, 2008.
7. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. O'quv qo'llanma. – Т.: Sharq, 2000.